

ZULFIYA IJODIDA MILLIY G'URUR VA VATANPARVARLIK G'OYALARINING IFODASI**D.B.Toshpulatova** – *filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent***S.M.Saydullaeva** – *o'qituvchi**Toshkent gumanitar fanlar universiteti***ВЫРАЖЕНИЕ ИДЕЙ НАЦИОНАЛЬНОЙ ГОРДОСТИ И ПАТРИОТИЗМА
В ТВОРЧЕСТВЕ ЗУЛЬФИИ****Д.Б.Тошпулатова** – *доктор философии филологических наук, доцент***С.М.Сайдуллаева** – *преподаватель**Ташкентский университет гуманитарных наук***THE EXPRESSION OF IDEAS OF NATIONAL PRIDE AND PATRIOTISM
IN THE WORKS OF ZULFIYA****D.B.Toshpulatova** – *Doctor of Philosophy in Philological Sciences, Associate Professor***S.M.Saydullaeva** – *Lecturer**Tashkent University of Humanities*

Tayanch soʻzlar. milliy gʻurur va vatanparvarlik, yolgʻizlik, Zulfiya hayoti, ijod tahlili, taʼriflash, teran taffakkur, gʻoyaviy – estetik qarash.

Rezyume. Mazkur maqolada Zulfiya ijodida milliy gʻurur va vatanparvarlik gʻoyalari badiiy-estetik ifoda etgan boʻlsa, ushbu milliy gʻoyalarning maʼnaviy barkamollik konsepsiyasi bilan uzviy bogʻlikligini bilish va oʻz olamida barq urgan falsafiy bilish kayfiyati olamga teran nazar solish bilan boyitgan, ilmiy asosda tahlil qilishni hamda adabiy jarayonda asosiy oʻrinda aks etishni amalga oshirdi.

Ключевые слова. национальная гордость и патриотизм, одиночество, жизнь Зульфии, творческий анализ, описание, глубокое мышление, идейно-эстетический взгляд.

Резюме. В данной статье идеи национальной гордости и патриотизма были художественно и эстетически выражены в творчестве Зульфии, зная неразрывную связь этих национальных идей с понятием духовного совершенства и философских знаний, процветавших в его мире, обогативших настроение глубоким взглядом на мир, осуществивших анализ на научной основе и отразивших главное место в литературном процессе.

Keywords. national pride and patriotism, loneliness, Zulfia's life, creative analysis, description, deep thinking, ideological - aesthetic view.

Summary. In this article, the ideas of national pride and patriotism were artistically and aesthetically expressed in the work of Zulfiya, knowing the inextricable connection of these national ideas with the concept of spiritual perfection and the philosophical knowledge that flourished in his world enriched the mood with a deep look at the world, carried out an analysis on a scientific basis and reflected in the main place in the literary process.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida global va milliy jarayonlar oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik kuchayib, qarashlar hamda gʻoyalar rang-barangligi ortib bormoqda. Bunday sharoitda yoshlar tarbiyasi masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yosh avlodni gʻoyaviy va vatanparvarlik ruhida voyaga yetkazish, ularda Vatanga sadoqat, milliy gʻurur va masʼuliyat hissini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Vatanparvarlik yoshlarning jamiyatdagi oʻrnini belgilaydi, ularning milliy manfaatlarga boʻlgan munosabatini mustahkamlaydi hamda davlat barqarorligining muhim omili sifatida namoyon boʻladi. Vatanparvarlik tarbiyasining nazariy va metodologik asoslarini shakllantirish jarayonida yoshlarning gʻoyaviy dunyoqarashini rivojlantirish, ijtimoiy masʼuliyat hissini kuchaytirish va milliy oʻzlikni anglashni chuqurlashtirishga qaratilgan yondashuvlar ustuvor ahamiyatga ega. Shu bois yoshlarni gʻoyaviy-vatanparvarlik ruhida

tarbiyalashning nazariy-metodologik jihlatlarini oʻrganish muhim sanaladi. Bu jarayonda vatanparvarlik tarbiyasining jamiyat taraqqiyotidagi oʻrni, uni samarali tashkil etish omillari hamda ilmiy-adabiy manbalarda ilgari surilgan yondashuvlar tahlil qilinadi. Darhaqiqat, vatanparvarlik tushunchasining ildizi insonning tugʻilib-oʻsgan maskani, kindik qoni toʻkilgan zamin bilan chambarchas bogʻliqdir. Shu sababli Vatanga boʻlgan muhabbat va sadoqatni tarbiyalashni eng avvalo oiladan boshlash zarur. Barkamol avlodni voyaga yetkazishda oilaning oʻrni beqiyos boʻlib, chunki inson dastlab oila muhitida ulgʻayadi va aynan shu muhitda shaxs sifatida shakllanadi.

Tahlil va natijalar. Vatan tushunchasi insonning tugʻilib voyaga yetgan, tarbiya topgan, mehnat faoliyati orqali hayotiy tajriba orttirgan muhitini, shuningdek, uning mansub boʻlgan xalqining tarixi bilan uzviy bogʻliq holda shakllangan ijtimoiy-

iqtisodiy, siyosiy va madaniy makonini ifodalaydi. Vatandarparvarlik esa Vatanni chuqur sevish, unga sadoqat bilan munosabatda bo'lish va uning manfaatlari yo'lida fidokorona xizmat qilishga tayyorlikni anglatadi. Ushbu tushuncha ijtimoiy, tarixiy va axloqiy his-tuyg'u sifatida jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllanib boradi. Ibtidoiy jamoa tuzumi sharoitida vatandarparvarlik asosan urug'-qabila, ona zamin, ona til va urf-odatlariga bo'lgan sadoqat bilan cheklangan bo'lsa, sinfiy jamiyatning vujudga kelishi bilan bu tushuncha mazmunan boyib, ijtimoiy hayotning tobora kengroq sohalarini qamrab ola boshladi. Tarixiy taraqqiyot davomida vatandarparvarlik g'oyasi chuqurlashib, jamiyat hayotida muhim ma'naviy kuchga aylandi.

Buyuk mutafakkirlar ta'kidlaganidek, inson tug'ilib o'sgan yurtidan uzoqlashgan taqdirda ham uni o'ziga tortib turuvchi kuch – bu ona zamin va Vatandar mehr-muhabbatidir. Shu bilan birga, zamonaviy jamiyatda vatandarparvarlik tushunchasining mazmuni ayrim hollarda yuzaki talqin qilinayotgani ham kuzatiladi. Ayrim shaxslar uchun vatandarparvarlik haqiqiy ichki e'tiqoddan ko'ra, jamiyatda ustuvor bo'lgan ijtimoiy tendensiyalarga moslashish vositasiga aylanib qolmoqda. Ilmiy nuqtayi nazardan qaralganda, vatandarparvarlik chin ma'noda yagonalik va mas'uliyatni talab etuvchi qadriyat bo'lib, u bir vaqtning o'zida bir nechta fuqarolik bilan uyg'unlashishi murakkab masaladir. Chunki muayyan ijtimoiy-siyosiy yoki inqirozli vaziyatlarda shaxs qaysi Vatanning manfaatlarini himoya qilishi masalasi muhim axloqiy va fuqarolik tanlovini taqozo etadi. Shu jihatdan vatandarparvarlik shaxsning ijtimoiy pozitsiyasi, ma'naviy mas'uliyati va fuqarolik ongini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek tilining izohli lug'atida "vatandarparvar" atamasi o'z Vatadini, ona yurtini va xalqini cheksiz sevuvchi, mamlakat manfaatlari yo'lida fidoyilik ko'rsatuvchi shaxs sifatida ta'riflanadi. "Vatandarparvarlik" esa bunday shaxslarga xos bo'lgan xatti-harakatlar, munosabat va fazilatlar majmui sifatida izohlanadi. Hozirgi davrda ushbu tushuncha fuqarolarning o'z Vatanga bo'lgan munosabatini ifodalovchi muhim ramziy-ijtimoiy kategoriya sifatida qaralmoqda. Ilmiy tadqiqotlar tahlili O'zbekistonda vatandarparvarlik g'oyasining shakllanishi va rivojlanishi tarixan muayyan o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Jumladan, vatandarparvarlik mamlakat ijtimoiy muhitining barqarorligi va ijtimoiy-madaniy yaxlitligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, u o'zbek xalqiga xos mentalitetning muhim tarkibiy qismi hamda o'zbek davlatchiligi taraqqiyotining ma'naviy asosi sifatida namoyon bo'ladi. Globallashtirish sharoitida yoshlar ongida milliy g'urur va vatandarparvarlik kompetensiyalarini shakllantirish zamonaviy pedagogikaning muhim va dolzarb

muammolaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon tarixiy-ma'rifiy merosga tayanishni, shu bilan birga, yangi ijtimoiy va axborot makoni sharoitida mazmunan qayta talqin etishni taqozo etadi. N.Norovning "Globallashtirish sharoitida yoshlarda milliy g'urur va vatandarparvarlik kompetensiyasini rivojlantirish muammolari va yechimlari" mavzusidagi tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, vatandarparvarlik g'oyasi qadimgi yunon va Sharq mutafakkirlari qarashlaridan boshlab, jadidlar hamda milliy uyg'onish davri namoyandalarning ta'limotlarida jamiyatni birlashtiruvchi va shaxsni fuqarolik mas'uliyatiga yo'naltiruvchi muhim axloqiy-pedagogik tamoyil sifatida izchil rivojlanib kelgan (Platon, Aristotel, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Amir Temur, Behbudiy, Avloniy). Mazkur g'oya bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. O'zbekiston Respublikasida yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, yuksak ma'naviyatli, vatandarparvar hamda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxslar sifatida voyaga yetkazish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, jumladan, "Yoshlar – kelajagimiz" davlat dasturi, ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan strategik hujjatlar hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning izchil tashkil etilishi yoshlar tarbiyasini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Shunga qaramay, amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, yoshlarning muayyan qismi globallashtirish sharoitida kuchayib borayotgan axborot oqimi ta'sirida yot va destruktiv g'oyalarga moyillik bildirmoqda. Natijada, milliy g'urur va vatandarparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan ayrim metodik yondashuvlarning samaradorligi yetarli darajada ta'minlanmayapti. Mazkur holat globallashtirish jarayonining ijobiy va salbiy ta'sirlarini chuqur tahlil qilish, yoshlar ongida milliy g'urur va vatandarparvarlik kompetensiyalarini rivojlantirishda mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishning ilmiy asoslangan mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Shu jihatdan, ushbu masalalar zamonaviy pedagogika fani oldida turgan dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Vatandarparvarlik tarbiyasi masalasi qadimdan olimlar va mutafakkirlar e'tiborida bo'lib kelgan. Qadimgi yunon faylasuflari Platon va Aristotel vatandarparvarlikni davlat farovonligi va fuqaroning ijtimoiy burchi bilan uzviy bog'liq holda talqin qilganlar. Sharq mutafakkirlari, xususan, Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida fuqarolarning o'zaro sadoqati va vatanga muhabbatini asoslab bergan. Ibn Sino hamda Abu Rayhon Beruniy insonning komillikka erishishi jamiyat manfaatlariga xizmat qilish bilan chambarchas bog'liq ekanini

ta'kidlaganlar. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida adolat va davlat ravnaqi g'oyalarini ilgari surgan bo'lsa, Alisher Navoiy Vatanga muhabbatni insoniy burch va ma'naviy yetuklik mezoni sifatida yoritgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Maqsud Qoriyev esa shunday yozadi: "Har yil bahor, shu ko'rkamlik faslining kuychisi, sevimli shoirimiz Zulfiyaxonimni eslaymiz. Zulfiya opa umr bo'yi kuyladi, ezgulikni yashadi, ijod qildi. Ona Vatan muhabbati, insoniylik, ezgulik, vafo va sadoqat uning nazm daftarlarida satrlarga aylandi. Zulfiya opa hayotga kuychi bo'lib tug'ilgan, turish-turmushi, butun hayoti ham kuyishga, ha, so'nmas, ado bo'lmas diltor kuyga o'xshardi. Sira yodimdan chiqmaydi: "O'zbekiston ovozi" gazetasida ishlagan kezlirim gazeta sahifasida "Yozuvchi ijodxonasi" ruknini tashkil etganmiz. O'zbekistonning eng atoqli shoirlari, yozuvchilari: Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Shayxzoda, Zulfiya, Mirtemir va boshqa ijodkorlar shu sahifada o'zlarining yangi yozgan asarlari bilan qatnashar edilar. Bu adiblarimizning g'oyat qizg'in mushohasasiga aylanib qolganday edi desam xato bo'lmas. "Ijodxona"dan chiqqan shu ijod namunalari ichida Zulfiya opa tayyorlab bergan materiallar, ayniqsa, salmoqli, badiiy jihatdan ancha baquvvat bo'lardi. Mana o'sha yig'inda shoira dilidan chiqqan mehrli misralar:

*Bu oqshom porlilar dil nuringizda,
Dildor baxti nasib yana Siz bilan.
Turibman, azizlar, huzuringizda,
Hamon umidli ko'ngil, erur roz bilan.
Hamon mulkimdagi siymu zarim — she'r,
Sochimda, chehramda yillardan nishon.
Sajdagohim tanho Vatan, Ona Yer,
Orzularim karbon, sarbonim — ishon..."*

O'zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Ibrohim Yusupov xotiralarida shunday yozadi: "Taniqli shoira Zulfiya nafaqat O'zbekistonda, balki qardosh ellarda ham ma'lum va mashhur bo'lib, u butun Sharqning ma'naviyat osmonida dunyoning barcha joylaridan porlab ko'rinadigan ajoyib yulduzga aylandi. Har bir erurga yulduzga ism qo'yilgani kabi, uni shoirona nomlash kerak bo'lsa, "Zulfiya yulduzi" deb nomlasa, shunga arzigulik edi. Ayol zotidan bunchalik sharaf qozongan, shoirona go'zallik timsoli bo'lgan, ijodi zamondoshlarining qalbini muhabbat nuri bilan yoritgan go'zal tuyg'ular ila tebratgan bunday shoira dunyoda kamdan-kam. Uning she'rlaridagi chuqur insoniylik, inson yuragini tebrantiradigan yaxshi tuyg'ular va muhabbat nuri go'yo obhayot chashmasi kabi yuraklarni maftun qilib, she'riyat shaydolarining ko'nglini hamisha zabt etadi. Zulfiya davrida (yoshi undan zarracha katta yoki sal yoshroq) ko'pgina taniqli shoira ayollar ijod qildilar. Mashhur rus shoirlari Olga Berggolts, Rimma Kazakova, belorussiyalik Elli Ognevet, ukrain shoirasi Lyubov Zabashta, litvalik Salomeya Neris, arman shoirasi

Silva Kaputikyan, ozarbayjonlik Marvarid Dilboziy, qozoqda Tursunxon Abdurahmonova, turkmanda Tayshan Esenova va hokazo. Ularning aksariyati o'z elida taniqli shoirlar sifatida tan olinib, anchagina ko'p elatlarga ma'lum bo'ldi. Lekin hech biri Zulfiyadek dunyoga mashhur bo'la olmadi. Zulfiyaning shoirona ovozi olam kengliklari uzra hayqirib jarangladi. Ayniqsa, Sharq ellari uni o'z shoiridek bilib e'zozladilar. Rus shoiri Ekaterina Sheveleva yozganidek: "Zulfiya Hindiston, Birma, Shri-Lanka, Misr xalqlariga yaxshi ma'lum shoirlarning biridir".

*Tanishlarim qancha? So'radim o'zimdand.
Menga javob qildi porlagan kuyim:
"Mening nurim kirgan hamma yer tanish,
Bahra olgan jonning hammasi qarindosh!"*

O'zbekiston mustaqillikka erishgan davrdan boshlab, milliy madaniyatni rivojlantirish va tarixiy shaxslarni yodda saqlash borasida ijtimoiy-ma'rifiy faoliyat kuchaygan. Prezidentning "Kelinlar, birodirlar, tiriklarning izzatini joyida saqlab, o'tganlarning xotirasini obod bo'lishini tilaylik" degan chaqirig'i milliy madaniyat va tarixiy xotirani mustahkamlash siyosatining muhim elementi sifatida amalga oshirilmoqda. Shu kontekstda xalq ma'naviyatida o'ziga munosib o'rin tutgan shoira Zulfiya opaning ijodiga davlat darajasida hurmat va ehtirom ko'rsatildi: shoiraning nomida Davlat mukofoti ta'sis etilib, u bugungi yosh adabiyot ixlosmandlari uchun ijodiy izlanish va kelajakka intilish uchun muhim ma'naviy mayoq vazifasini bajaradi. Bu jarayon milliy madaniyatni mustahkamlash va adabiy merosni yosh avlodga yetkazish strategiyasining ajralmas qismidir. Muallifning shaxsiy xotiralar Zulfiya ijodi bilan tanishish jarayonini o'zining talabalik davriga to'g'ri kelishini qayd etadi (1945–1949). Shunday davrda Qoraqalpog'istonda mavjud bo'lgan pedagogik institutda turkiy tillar bo'yicha o'quvchilar bir bo'limda birlashib o'qiganlari, adabiy asarlarni tillar aralashuvida keng o'qiganlari qayd etiladi. Bu holat milliy adabiyotga oid matnlarni original tilida o'rganish va tarjima qilish orqali madaniy almashinuv jarayonining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Talaba davrida G'afur G'ulom, Shayxzoda, Asqad Muxtor va Hamid Olimjon kabi zamonaviy o'zbek shoirlarini sevib o'qish talabalarining adabiy didini shakllantirdi. Xususan, Hamid Olimjonning she'rlari tarjima qilinib, adabiy kechalarda ijro etilganligi adabiy muhitning madaniy rivojlanishiga hissa qo'shdi. Keyinchalik Zulfiya ijodiga bo'lgan qiziqish ortib, uning she'rlari ayniqsa talaba qizlar orasida ommalashib, adabiy tadbirlarda yodlab aytilishi ularning shaxsiy estetik didi hamda milliy she'riyatga bo'lgan e'tiborini oshirdi.

Shoiraning hamkasbi bo'lgan Hamid Olimjonning bevaqt vafot etgani haqidagi og'ir xabar ijtimoiy-

emosional jarayonda chuqur iz qoldirdi. Shu munosabat bilan Zulfiya opaning “Bahor keldi seni so‘roqlab” she‘rining qoraqalpoq tiliga tarjima qilinishi ikki adabiy makon o‘rtasida madaniy ko‘prik vazifasini bajardi. Bu tarjima faoliyati nafaqat til va madaniyat almashinuvi, balki milliy adabiyotlarni o‘zaro boyitishning usuli sifatida ham qaralishi mumkin.

O‘zbekiston xalq shoiri Ramz Bobojon ushbu misralarga quyidagicha ta‘rif beradi: “1958-yilning oktyabr oyida Toshkentda Osiyo va Afrika mamlakatlari yozuvchilarining birinchi konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. O‘shanda “Toshkent ruhi” degan ibora paydo bo‘ldi. Bu o‘zaro hamjihatlikning, qarashlar birligining, tinchlik va ijtimoiy taraqqiyot uchun kurashda bir-birini qo‘llab-quvvatlashga hozir bo‘lib turishning aniq ifodasi edi. O‘zaro do‘stona safarlar ikki qit‘a yozuvchilari o‘rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlashga ro‘bita bo‘ldi. O‘zbek va chet ellik qalamkashlar o‘rtasida o‘zaro yozishmalar yanada jonlanib ketdi. Yozuvchilar bir-birlariga o‘z kitoblarini in‘om etdilar, bir-birlarini qiziqitiruvchi muammolar ustida bahslashdilar, fikr va mulohaza yuritdilar. Osiyo va Afrika yozuvchilari assotsiatsiyasi faoliyatining eng muhim yakuni ikki buyuk qit‘a adiblari tomonidan yaratilgan kitoblar, eng yaxshi asarlardir”. Zulfiya ijodidagi yana bir she‘rni tahlilga olsak: She‘rda kuylangan bu kuygan jon naq Zulfiyaning o‘zigasi. O‘z davrining ma‘naviy yetuk qizi edi u.

*Salqin saharlarda, bodom gullida,
Binoyida labida, yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi, ellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, girlarda bahor...*

— deya boshlanadigan bu she‘rni o‘qiganda betakror husn sohibi shoira Zulfiya o‘ttiz yoshda edi. U she‘rda bitilgan alam-iztirob va fojia shu yoshda har qanday odam ham dosh berolmaydi. Zulfiyaning irodasiga zamonasidagi barcha ayollar havas qilganini zamondosh ayollar xotirasida ko‘rish mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda Zulfiya ijodi misolida milliy g‘urur va vatanparvarlikning badiiy talqini o‘ziga xos yo‘sinda namoyon bo‘lishi aniqlandi. Shoira vatan tushunchasini keng ma‘noda talqin qilib, uni ona zamin, xalq, ayol taqdiri, ma‘naviy mas‘uliyat va tarixiy xotira bilan uzviy bog‘laydi. Bu holat Zulfiya she‘riyatida vatanparvarlikning balandparvoz shiorlardan holi, insoniy va ruhiy mohiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Zulfiya shaxsiyati va ijodi haqidagi zamondosh ijodkorlar xotiralari tahlil qilinar ekan, shoiraning adabiy jarayondagi o‘rni faqat ijodi bilan emas, balki insoniy fazilatlar, hayotiy pozitsiyasi va ma‘naviy jasorati bilan ham belgilangani aks etgan. Zamondosh adib va adabiyotshunoslarning xotiralarida Zulfiya obrazining ko‘p qirrali ekanligi, uning ijodkor sifatidagi mas‘uliyati va so‘zga bo‘lgan yuksak talabi alohida ta‘kidlanadi. Ushbu xotiralar shoiraning adabiy merosini tushinishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi, chunki ular ijod va shaxs uyg‘unligini ochib berishga yordam beradi. Dastlabki tadqiqotlarda uning she‘riyati ko‘proq mafkuraviy mezonlar asosida baholangan bo‘lsa, keyingi ilmiy izlanishlarda estetik, psixologik va gender yondashuvlar kuchaygan. Bu holat shoiraning ijodi ko‘p qatlamli va keng talqin imkoniyatiga ega ekanini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar

1. Zoirova S.U. Yoshlarni g‘oyaviy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning nazariy metodologik asoslari. // *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences Research* 2024,4(10), 38-b.
2. Norov N.J. Globallashuv sharoitida yoshlarda milliy g‘urur va vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirish muammolari va yechimlari. // *Maktab ta‘limi (School Education / Школьное образование)*, 2025 (11).
3. Plato. *The Republic* (R.E.Allen, Trans.). Yale University Press. 2008. (Original work published ca. 380 BCE)
4. Aristotle. *Politics* (C.D.C. Reeve, Trans.). Hackett Publishing Company. 2013 (Original work published ca. 350 BCE)
5. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. (Asl asar X asr). – Toshkent: «Fan», 1973.
6. Beruni. *Selected works* (Vol. 1). Academy of Sciences of the USSR. 1963. (Original works written ca. 1000–1030)
7. Yusuf Khas Hajib. *Kutadgu Bilig* (R. Dankoff, Trans.). University of Chicago Press. 1983. (Original work published 1069-1070)
8. Navoi A. Mahbub ul-qulub. (Original work published ca. 1500). – Toshkent: «Fan», 2001.
9. Zulfiya zamondoshlari xotirasida: Zulfiya. Zulfiya zamondoshlari xotirasida. 2015. (R.Olimjonova & M.Usmonova, tayyorl., Uyg‘un Ro‘ziyev, muharrir). – Toshkent: «Akademnashr», 36-39-b.